

O. QUDRATOV, T. G'ANIYEV

HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv
qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT — «MEHNAT» — 2004

O'quv qo'llanmada mehnat qonunchiligi, gigiyenasi va sanoat sanitariyasi, ishlab chiqarish binolarini yoritish, shovqin va titrash, elektr xavfsizligi, og'ir qo'l mehnatini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, korxona hududini obodonlashtirish, yong'in xavfsizligini ta'minlash kabi masalalar yoritilgan.

Shuningdek, o'quv qo'llanmada ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik texnikasiga rioya etish bosqichlari va bunda qo'llaniladigan anjomlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Taqrizchilar: **H.E.G'OYIPOV** — texnika fanlari nomzodi, dotsent;
S.Y.BOBOJONOVA — Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti «Mehnat muhofazasi» kafedrası dotsenti; **O'R. YO'LDOSHEV** — texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Q $\frac{1203020700}{M 359 (04)}$ — 45 — 2004 buyurtma, 2004

ISBN 5—8244—1594—3

© «Mehnat» nashriyoti, 2004-y.

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri — ishchi-xizmatchilarning, ayollar va balog'at yoshiga yetmagan yoshlarning mehnat sharoitlarini yaxshilashdan iboratdir.

Bugungi kunda respublikamiz korxonalarida mehnat qilayotgan ayollar va o'smirlar mehnatini muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, ularni og'ir va sog'liq uchun zararli ishlardan ozod qilish, qisqartirilgan ish kuni huquqi qonun bilan belgilab qo'yilishi, homiladorlik ta'tili, bola tarbiyasiga beriladigan ta'tilning uch yilgacha uzaytirilishi va boshqa imtiyozlar bunga misol bo'la oladi.

Inson mehnati va bu mehnat jarayonida uning xavfsizligini ta'minlash har bir jamiyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lmog'i lozim. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan «Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida» hayot, erkinlik, mehnat va shaxsiy daxlsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi fanining maqsadi — mehnat xavfsizligini chuqur o'rganish, bilish, tashviqot qilish va odamlarni xavf-xatardan himoya qilish masalalari asosida tarbiyalashdir. Buning ilmiy zamini esa ishlab chiqarishda shikastlanish, kasbiy kasalliklar, yong'in va halokatlar sabablarini har tomonlama tahlil qilish, mehnat jarayonida qo'llaniladigan asbob-anjomlarning xavfsizlik va zararlilik darajasini o'rganish, paxta, ipak va yengil sanoatda qabul qilingan yoki joriy etishga tavsiya etiladigan, og'ir hamda sermehnat ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni ko'zda tutuvchi texnologik jarayonlarni baholashdir.

Mazkur fan «Ergonomika», «Muhandislik psixologiyasi», «Mehnatni ilmiy tashkil qilish», «Texnik estetika», «Mehnat fiziologiyasi va gigiyenasi», «Huquqshunoslik», «Iqtisodiyot», «Sanoat ekologiyasi» fanlari bilan uzviy

bog'langandir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi fani oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun texnika, iqtisodiyot, mehnat gigiyenasi, fiziologiyasi va psixologiyasi, mehnatni ilmiy tashkil qilish, sanoat estetikasi va boshqa sohalardagi mutaxassislarning birgalikda ishlashlari talab etiladi.

Mehnatni ilmiy tashkil etish ishlab chiqarishga muntazam ravishda joriy etiladigan fan yutuqlariga hamda ilg'or tajribaga asoslanadi, mehnat va moddiy boyliklardan keng va samarali tarzda foydalanishni ta'minlaydi, inson sog'ligini saqlashga yordam beradi hamda mehnatni hayotiy ehtiyojga aylantiradi.

1-bob. HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Hayotiy faoliyat xavfsizligi nazariyasining asosiy tushuncha va ta'riflari

Xavf-xatar deganda, odam sog'ligiga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazadigan ko'ngilsiz hodisalar tushuniladi. Xavfning bunday tushunchasi oldingi standart tushunchalar (ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari)ni o'z ichiga oladi, chunki hayotiy faoliyat xavfsizligi faoliyatning hamma shakllari va omillarini nazarda tutadi. Hayotiy faoliyatga to'g'ri kelmaydigan elementlar tizimi, kimyoviy hamda biologik faol moddalar yashirin xavfga egadir.

Xavflar taksonomiyasi — bu murakkab hodisalarni, tushunchalarni, kishi faoliyatiga qaratilgan narsalarni tasniflash va tizimlash to'g'risidagi fandir. U faoliyat xavfsizligi borasida bilimlarni uyushtirishda, xavflarning tartibini yanada chuqurroq o'rganishda katta ahamiyatga ega. Taksonomiya yangi fan bo'lib, hali to'la ishlab chiqilmagan. Biroq uning ayrim qismlari quyidagilarni tashkil etadi:

- kelib chiqishi bo'yicha xavflar: tabiiy, texnik, ekologik, aralash bo'ladi;

- rasmiy standartga asosan fizik, kimyoviy, biologik va ruhiy turlarga bo'linadi;

- salbiy oqibatlarining ro'y berish vaqti bo'yicha impulsiv (beixtiyor harakat) va kumulyativ (to'satdan keluvchi) turlarda bo'ladi;

- xavflar tarqalishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha (lokalizatsiya) — litosfera, gidrosfera, atmosfera va koinot bilan bog'liq bo'ladi;

- kelib chiqadigan oqibatlariga ko'ra charchash, kasallanish, jaro-hatlanish, halokatlar, yong'inlar ko'rinishida bo'ladi;

- keltiradigan zarari bo'yicha ijtimoiy, texnik, ekologik va boshqa turlarga bo'linadi;

- namoyon bo'lishi bo'yicha maishiy, sport, yo'l-transport, ishlab chiqarish va harbiy bo'ladi;

- odamga ta'siri bo'yicha o'ta ta'sirchan (zaharlar, kislotalar) va sust